ACADEMIA ONE
PEER REVIEWED JOURNALS

*Open Herald: Periodical of Methodical Research*
Volume 4, Issue 11, November 2026
**ISSN (E): 2810-6385**
**Website:** https://academiaone.org/index.php/6

# Qarshi Davlat Pedagogika Institutida Ilm-Fan Sohasida Erishilgan Yutuqlar Va Uning Viloyat Xalq Xo`Jaligi Rivojidagi O`Rni

**Dilnoza Shadiyeva Aminovna PhD,**
Qarshi davlat universiteti , Qarshi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qarshi davlat pedagogika institutida ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar va uning viloyat xalq xo‘jaligi rivojidagi o‘rnihaqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar** Qarshi pedegogika istiuti, fakultet, kafedra, Qarshi davlat universiteti, oliy ta’lim.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalari o‘zi joylashgan muayyan hududda ilm-fan rivojida katta rol o‘ynaydi. Xususan, Qarshi davlat pedagogika instituti ham Qashqadaryo viloyati fani rivojida hal qiluvchi rollardan birini egalladi. Institutda ilmiy-tadqiqot ishlari XX asrning 50-yillaridan boshlandi.

Institutni o‘qituvchilar bilan ta’minlash maqsadida mahalliy mutaxassislar markaziy shaharlarga aspiranturada o‘qishga yuborildi. Masalan, Tasliya Yadixanova Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahriga aspiranturaga o‘qishga yuborildi. U 1955-yilda o‘zbek tili bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi fan nomzodi bo‘ldi[1]. 1955-yilda institutda faqat bir nafar fan nomzodi bo‘lsa, 1956-yilda ular 6 nafarga yetdi[2]. Shu tariqa institutda ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi o‘qituvchilar soni ortib bordi. Institutda ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchilar barmoq bilan sanarli darajada bo‘ldi. Masalan, 1954-1955-o‘quv yilida Polupanov, Shermatov, Aleynik, Hamrayev, Qahhorov, Sodiqovlar ilmiy tadqiqot ishini olib borishdi [3].

XX asrning 60-yillariga kelib institutda ilmiy tadqiqot ishlari biroz jonlandi. Birgina 1965 yili institutda Tog‘ay O‘rinov, N. Belalov, A. Y. Mirzaboyev, Vafo Egamberdiyev, O‘ktam Rahimov, Toshpo‘lat Jovliyevlar o‘qituvchilar nomzodlik dissertasiyasini himoya qilishdi. Natijada, yoshlar o‘rtasida ilm-fanga qiziqish ortib bordi. Masalan, 1966-yili institutning aspirantura bo‘limida o‘qiyotganlarning soni 47 nafarga yetdi. Ammo institut uchun ajratilgan aspirantura yo‘nalishiga ko‘p hollarda boshqa hudud tadqiqotchilari qabul qilindi. Biroq ular orasida, deyarli, qashqadaryoliklar bo‘lmagan. Bu davrda institutda 10 nafardan ortiq tadqiqotchilar doktorlik dissertasiyasi ustida ish olib bordi. 1964 – 1966-yillarda jami 10 ta ilmiy to‘plam, 4 ta risola nashr etildi[4].

Institutda pedagog kadrlarni maqsadli aspiranturaga yuborish, stajirovka o‘tash, ta’til berish va bir yillik aspiranturaga o‘qishga kiritish yo‘li bilan tayyorlash va malakasini oshirishga muayyan darajada e’tibor qaratildi. 1972 - 1973-o‘quv yilida maqsadli aspiranturada o‘qish uchun 6 nafar, bir yillik aspiranturaga 2 nafar o‘qituvchi, 13 nafar ikki yillik amaliyot o‘tash uchun markaziy shaharlarga yuborildi. 1972-1973-o‘quv yilida 15 ta nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish rejalashtirilib, ularning 13 nafari muvaffaqiyatli himoya qilindi[5]. Bu davrda institutda jami 247 nafar o‘qituvchidan 1 nafari fan doktori, 479 nafari fan nomzodi va dotsentlar, 186 nafar o‘qituvchilar ilmiy ish olib bordi. Bu institutdagi jami xodimlar sonining 69 foizini tashkil etdi. Umuman olganda, 1972-yili bitta monografiya, ikkita risola, 256 ta ilmiy maqola va tezislar professor-o‘qituvchilar tomonidan e’lon qilindi. Maqolalarning 37 tasi respublika jurnallarida chop etildi[6].
1981-yilda 10 ta, 1982-yilda 12 ta, 1983-yilda 13 ta maqola chop etildi[7].

Ushbu davrda sport va jismoniy tarbiya yo‘nalishi kafedralarida ham unumli tadqiqot ishlari olib borildi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent Y. Xudoyberdiyev “Talabalarni jismoniy tarbiya va sportga tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish muammolari”

ACADEMIA ONE
PEER REVIEWED JOURNALS
Open Herald: Periodical of Methodical Research
Volume 4, Issue 11, November 2026
ISSN (E): 2810-6385
Website: https://academiaone.org/index.php/6

konferensiyasi to‘plamida “Sportchilarda sinus artimiyasi” nomli maqolasini(1982) e’lon qildi. Institut professor-o‘qituvchilarining ilmiy-nazariy konferensiyasida 18 nafar o‘qituvchilarning barchasi o‘z ma’ruzalari bilan qatnashdi[8].

Fizika-texnika fanlari bo‘yicha umumiy fizika, fizikani o‘qitish metodikasi, TSO kafedralari professor-o‘qituvchilari jiddiy shug‘ullandilar[9]. Umumiy fizika kafedrasi, asosan, “Qishloq xo‘jaligida quyosh energiyasidan foydalanish” muammosi ustida izlanish olib bordi. Shuningdek, kafedra a’zolari fizika fanini o‘qitish metodikasi, atom yadrolarining tuzilishi nazariyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bordi[10].

Umumiy fizika kafedrasi ham shartnoma asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajardi. Kafedra O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi ministrligi bilan “1981 – 1983-yillarda tamaki, uzum va mevalar uchun quyosh quritkichini yaratish, tadqiq etish va joriy etish” mavzusida xo‘jalik shartnomasini tuzdi[11].

Izlanishlari davomida qo‘lga kiritilgan tadqiqot natijalarini monografiya ko‘rinishida nashr ettildi[12]. Kafedra dotsenti S. Y. Yakubovning ham ilmiy maqolalari va monografiyasi chop etildi. U, asosan, “Maktab fizikasi kursida spektrlarni o‘qitish metodikasi” mavzusida izlanish olib bordi[13].K.M. Xudoyqulovning “O‘quv jarayonida yarimo‘tkazgich qurilmalari” nomli o‘quv qo‘llanmasi ham nashr etildi[14].

Umumiy texnika hujjatlari (OTD) bo‘limi “Avtonom iste’molchilarni elektr va suv bilan ta’minlash uchun yuqori samarali quyosh qurilmalarini yaratish va xalq xo‘jaligiga joriy etish” mavzusida ilmiy tadqiqot olib bordi. Mavzu quyosh energiyasini tadqiq etish va undan foydalanishni jadallashtirishga ko‘maklashish bo‘yicha tashkil etilgan Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligida quyosh energiyasidan foydalanish” 1981-1983-yillarda oqilona ilmiy-texnikaviy muammoni hal qilish kompleks dasturiga kiritildi[15]. Kafedraning 3 nafar a’zosi nomzodlik dissertatsiyasi ustida ham ish olib bordi. S. Yakubov Tomsk davlat universiteti aspiranti, B. Xolliyev “Quyosh” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi stajyor-ilmiy xodimi, V. D. Kim O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti sirtqi bo‘limi aspiranti sifatida faoliyat ko‘rsatdilar[16]. Umuman institutda texnika sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lami yillar davomida ortib bordi[17].

Qarshi davlat pedagogika instituti professor-o‘qituvchilarining an’anaviy ilmiy-nazariy konferensiyalari har yili o‘tkazilib kelindi. Kafedra a’zolari Moskva, Toshkent, Cheboksari, Vladimir shaharlarida bo‘lib o‘tgan respublika va Butunittifoq konferensiyalarida o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar[18]. Oliy ta’lim muassasalarining pedagog olimlari ham o‘quv, ham ilmiy-tadqiqot ishlari rivojida katta rol uynadi[19].

Qarshi davlat pedagogika instituti xorijiy tillar kafedralari o‘qituvchilari ham o‘z mavzulari doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Chet tillar kafedralarida uchta lingafon, bitta fotokutubxona, bitta musiqa kutubxonasi, fan xonalari, 10 ta magnitofon, ko‘plab magnit yozuvlar mavjud edi[20]. Bu jihozlar o‘z o‘rnida o‘qituvchilarning ilmiy izlanishlarida katta ahamiyat kasb etdi.

Chet tillarni o‘qitishning ilmiy-uslubiy darajasini oshirish, yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘yicha muayyan tadbirlar olib borildi. Demak, nemis tili kafedrasi mudiri SSSR Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutining Leningrad filialida aspiranturani tamomlab, 1977-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shu kafedra o‘qituvchisi T. Nurmatov o‘z tadqiqotlarini Leningrad davlat universiteti laboratoriyasida olib bordi va 1980-yil iyun oyida Tbilisi davlat universitetida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Kafedra o‘qituvchisi Sh. Abdunazarov o‘z nomzodlik dissertatsiyasini Moskva davlat chet tillar institutida himoya qildi[21].

Xullas, Qarshi pedagogika institutida o‘quv-tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot ishlari ham salmoqli olib borildi.. Professor-o‘qituvchilar o‘zlarining imliy ishlarini maqola, risola, monografiya shaklida muntazam nashr etib bordi.

**Foydalanilgan Adabiyotlar Ro`Yhati:**

1.Qarshi davlat universiteti muzey materiallari.

ACADEMIA ONE
PEER REVIEWED JOURNALS
Open Herald: Periodical of Methodical Research
Volume 4, Issue 11, November 2026
ISSN (E): 2810-6385
Website: https://academiaone.org/index.php/6

QVDA, 463-fond, 2-ro‘yxat, 73-ish, 12 – 25-varaqlar.
QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 51-ish, 24 – 25-varaqlar.
QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 115-ish, 5 – 18-varaqlar.
QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 384-ish, 5-varaq.
6.Материлы предстоящей XI научно-теоретической конференции профессорско-преподовательского состава Каршинского пед. Института. – Карши, 1972;
QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 702-ish, 33-varaq.
QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 702-ish, 34-varaq.
10. Искандарова Н. Не погасить талант (Ученые Каршинского педагогического института организаторы преподавания основ вычислительной техники в школе) // Правда Востока, 1988 г, 25 февраля.
11. QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 702-ish, 46-varaq.
12. Шодиев Д.Ш. Ўқув жараёнида билимларнинг назарий ва эмпирик даражаларининг методологик муаммолари. – Тошкент: Фан, 1982.
13. Якубов С. Мактаб физикаси курсида спектрларни ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
14. Худойқулов К.М. Ўқув жараёнида яримўтказгич қурилмалари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
15. QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 702-ish, 47-varaq.
16. QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 702-ish, 47-varaq.
17.Худайқулов М. Илмий тадқиқотлар – тараққиёт омили // Совет Ўзхбекистони. –1980. –13 дек.
18.QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 702-ish, 47-varaq.
19.Қосимов А.Қ. Педагог олимлар ҳиссаси // Ўқитувчилар газетаси. –1983. –19 янв.
QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 756-ish, 30-varaq.
21.QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 756-ish, 31-varaq.